

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 6, 30 Июнь

## DARS JARAYONIDA KASBIY IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI (FIZIKA DARSLARI MISOLIDA)

UrDU akademik litseyi fizika fani o'qituvchisi

**Matyakubov R**

**Annotatsiya.** O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida esa "Tegishli ma'lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega",- deb belgilangan. Bu esa bo'lajak o'qituvchilarga o'ta dolzarb vazifalarni yuklaydi. Buning uchun esa bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik ijodkorligini rivojlantirish, raqamli va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda bilim berish, ularning ma'lumotini, malakasini oshirish juda muhim hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** o'qituvchi, kasb ijodkorligi, raqamli texnologiyalar, pedagogika, pedagogik texnologiyalar.

## THE IMPORTANCE OF USING PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL CREATIVITY IN THE LESSON PROCESS (EXAMPLE OF PHYSICS LESSONS)

**Abstract.** The Law of the Republic of Uzbekistan "On Education" states that "Persons with appropriate education, professional training and high moral qualities have the right to engage in pedagogical activities." This imposes very urgent tasks on future teachers. For this, it is very important to develop the pedagogical creativity of future teachers, impart knowledge using digital and modern pedagogical technologies, and improve their knowledge and skills.

**Key words:** teacher, professional creativity, digital technologies, pedagogy, pedagogical technologies.

## ЗНАЧИМОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ТВОРЧЕСТВА В ПРОЦЕССЕ УРОКА (НА ПРИМЕРЕ УРОКОВ ФИЗИКИ)

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 6, 30 Июнь

**Абстрактный.** Закон Республики Узбекистан «Об образовании» гласит, что «Педагогической деятельностью имеют право заниматься лица, имеющие соответствующее образование, профессиональную подготовку и высокие моральные качества». Это возлагает на будущих учителей очень актуальные задачи. Для этого очень важно развивать педагогическое творчество будущих учителей, прививать знания с использованием цифровых и современных педагогических технологий, совершенствовать их знания и навыки.

**Ключевые слова:** педагог, профессиональное творчество, цифровые технологии, педагогика, педагогические технологии.

Ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bugungi kun talabi ekanligi hammaga ma'lum. Dars jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanib darslarni tashkil etish ta'lim samaradorligini ta'minlaydi. Avvalo texnologiya tushunchasiga ta'rif berib o'tsak.

✓ Texnologiyalar. "Texnologiya" grekcha so'z bo'lib mohirlik, ustalik, biror ishni uddalay olishni anglatadi. Bu ma'lum bir jarayonga nisbatan qo'llanilgan. Jarayon deganda esa maqsadga erishishga yo'naltirilgan xatti-harakatlar majmui tushunilgan. Ushbu jarayon inson tomonidan tanlangan strategiya bilan belgilanadi va turli xildagi vositalar, usullar yordamida amalga oshiriladi.

✓ Axborot texnologiyalari to'g'risida gap ketganda, material sifati ham, mahsulot sifatida ham axborot ishtirok etadi. Biroq bu obyekt, jarayon yoki hodisa to'g'risidagi sifat jihatidan yangi ma'lumot bo'ladi. Texnologiya xodimning axborot bilan ishlash usuli va uslubi hamda texnik vositalar orqali namoyon bo'ladi.

✓ Axborot texnologiyasining maqsadi esa – axborot ishlab chiqarish bo'lib, uni tahlil etish va uning asosida biror bir harakatga qo'l urish uchun tegishli qaror qabul qilish.

✓ Axborotlarni yig'ish, uzatish, to'plash, saqlash, taqdim etish va foydalanish usublari va usullari tizimi axborot texnologiyasi deb yuritiladi. Pedagogik texnologiyani amalga oshirishda ta'lim mazmuniga tayangan holda ma'lum metodlar qo'llaniladi.

Pedagogik texnologiya metodlarining qo'llanilishi quyidagi ketma ketlikdan foydalanish asosida amalga oshiriladi: - O'qitishning faol metodlari; - pedagogik texnika va pedagogik ishlab chiqarish asoslari; - ta'lim jarayonini individuallashtirish; - Ilg'or pedagogik tizimlarni loyihalash; - Ta'lim jarayonining

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 6, 30 Июнь

samaradorligini oshirish; - Modulli ta'lim texnologiyalari; - Pedagogikada innovatsion jarayonlar; - Pedagogik faoliyatni tashkil etishning ilmiy asoslari; Pedagogik test va standartlar; - Ishbilarmonlik o'yinlari; - O'yin texnikasi. Pedagogik jixatdan izohlanishicha, ta'lim metodi o'qituvchi va o'quvchining ta'lim mazmunini o'zlashtirishga qaratilgan o'zaro aloqador, ma'lum ketma-ketlikdagi faoliyati tizimidir.

Ularning o'ziga xos belgilari quyidagilar: maqsad, o'quv jarayoni sub'ekting o'quv materialini o'zlashtirish usullari va shakllari. Ta'limning faol metodlariga xos ilk belgilar XIV-XVI asrlarda namoyon bo'lgan. Buyuk gumanistlar – F.Rable, M.Manten, F.Bekonlar bilimlarni tayyor holda uzatilgan ma'lumotlar asosida emas, balki amaliy tajriba, munozara orqali mustaqil o'zlashtirishni tavsiya etganlar. Keyinchalik ta'lim metodlari YA.A.Komenskiy, I.G.Pestalotssi, F.A.Disterverg, Dj.Dyui, K.D.Ushinskiy, P.F.Kayerovlar tomonidan rivojlantirilgan. Ular didaktikada ilg'or, ya'ni bilimlarni mustaqil ravishda o'zlashtirish g'oyasini ilmiy jihatdan asoslaganlar. Ma'lumki, verbal (og'zaki) o'quv usullaridan foydalanilganda (ma'ruza, hikoya, tushuntirish) talabalar ma'lumotning 5% ini eslab qolishadi. O'qish ma'lumotning 10% ini saqlab qolishga imkon beradi, videofilm, rasm, ko'rgazmali qurollarni ko'rish, ko'rgan ma'lumotlarni 20% ini o'zlashtirishni ta'minlaydi. Ishbilarmonlik o'yini eng samarali hisoblanadi, buning natijasida talabalar ongida ma'lumotning 75% i saqlanib qoladi. O'quv-amaliy mashg'ulotlarning talabalar tomonidan olib borilishi undan ham samaraliroq hisoblanadi, bunda 90% ma'lumot o'zlashtiriladi. Aynan darslikdagi bilim manbani o'quvchiga tez va oson yetkazishda pedagogic texnologiya joriy qilinib bugungi o'z samarasini berib kelmoqda. Pedagogik texnologiyalarning yaratilishi 1980-yillarga to'g'ri kelib bu borada AQShda juda ko'p ishlar qilindi.

O'quv mashg'ulotlarida olib boriladigan pedagogik texnologiya turlaridan ayrimlarini misol tariqasida keltirish o'rinli. Multimediali texnologiyalar apparatli vositalar yordamida bilimlar bazasi axborotlar bilan tanishuv mantig'ini erkin tanlashga, axborotni ovoz, video va kinofragmentlar, multiplikatsiya bilan birlashtirish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga kompyuterli immitatsiyalarni, mikroduyolarni va ularning manbasini talabada alohida qiziqish chaqiruvchi didaktik va rivojlantiruvchi o'yinlarni yaratish imkonini ham beradi. Modul o'qitish texnologiyasi deyilganda fan, o'quv predmetining o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olib, ta'lim samaradorligini oshirish maqsadida o'quv materialini yirik

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 6, 30 Июнь

turkumlarga ajratib o'rgatish, uning maxsus bo'limlariga pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish tushuniladi. O'yinli pedagogik texnologiyalardan foydalanishning asosiy talablarini faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyat tashkil etadi. O'yin ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va qayta yaratishga yo'nalgan vaziyatlarda faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o'z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi.

Masalan fizika darslarida o'yin texnologiyani qo'llash o'quvchi psixikasiga juda kata ijobiy ta'sir ko'rsatib darsda guruxdagi barcha o'quvchilarni qamrab olish imkoniyatini beradi, fizikaning hamma uchun qiziqarli bo'lgan lampaning ixtiro qilinishi bilan bog'liq mavzularida lampaning ixtirochisi bo'lgan Tomas Edison hayoti haqida qisqacha sahna ko'rinishi tashkil qilish bilan o'sh davrga biroz hayoliy sayohat qilish, o'sha davrdagi ilm fanga oid mavjud vaziyatni his qila olish imkoniyati tug'iladi, bu bilan birga o'quvchilarda bugungi kunda yoshlarga yaratilayotgan juda kata imkobiyatlarni qadrlash tuyg'usi shakllanadi.

Ta'limni shakllantirishda hamkorlikda o'qitish texnologiyasi pedagogik jarayonni takomillashtirish va uni o'quvchi shaxsiga yo'naltirishga asoslangan. Hamkorlikda o'qitish mashg'ulotlarining asosiy jarayonlari: hamkorlikda fikr almashish, suhbat, tahlil, munozara, muzokara, amaliy vazifalar bajarish, biror narsani ko'rish, yasash, masalalar yechish va boshqalarni o'z ichiga oladi. Muammoli ta'lim texnologiyasining asosi – insonning fikrlashi muammoli vaziyatni hal etishdan boshlanishi hamda muammolarni aniqlash, tadqiq etish va yechish qobiliyatiga ega ekanligidan kelib chiqadi. Mualliflik texnologiyasi pedagogik strategiya sifatida talaba va o'qituvchilar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirish vositalariga ega. «Tanishuv» texnologiyasi o'quv jamoasi ilk dars soatida amalga oshiriladigan texnologiyalardan bo'lib, ishtirokchilarini bir-birlari bilan tanishtirish, samimiy do'stona munosabat va ijodiy muhitni yuzaga keltirish, talabalarning ijodiy imkoniyati va shaxsiy sifatlarini ochish, auditoriyaning ishlashi uchun qulay sharoit vujudga keltirish uchun qo'llaniladi. «Bumerang» texnologiyasi bir mashg'ulot davomida o'quv materialini chuqur va yaxlit holatda o'rganish, ijodiy tushunib yetish, erkin egallashga yo'naltirilgan. U turli mazmun va harakterga (muammoli, munozarali, turli mazmunli) ega bo'lgan mavzularni o'rganishga yaroqli bo'lib, o'z ichiga og'zaki va yozma ish shakllarini qamrab oladi hamda bir mashg'ulot davomida har bir ishtirokchining turli topshiriqlarni bajarishi, navbat bilan talaba yoki o'qituvchi roliga bo'lishi, kerakli ballni to'plashiga imkoniyat beradi.

«Zinama-zina» texnologiyasi talabalarni o'tilgan yoki o'tilishi kerak bo'lgan mavzu bo'yicha yakka va kichik jamoa bo'lib fikrlash hamda xotirlash,



# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 6, 30 Июнь

o'zlashtirilgan bilimlarni yodga tushirib, to'plangan fikrlarni umumlashtira olish va ularni yozma, rasm, chizma ko'rinishida ifodalay olishga o'rgatadi. Masalan bu texnologiyada fizika darsida biror muammoli vaziyat yoki biror fizik qonuniyatni isbotlashda ketma-ketlikda, zinama-zina bajarib boriladi. «Charxpalak» texnologiyasi talabalarni o'tilgan mavzularni yodga olishga, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to'g'ri javob berishga va o'z-o'zini baholashga o'rgatishga hamda qisqa vaqt ichida o'qituvchi tomonidan barcha talabalarining egallagan bilimlarini baholashga qaratilgan, ya'ni oldingi darslarda berilgan fizik qonuniyatlarni barchasini yodlash va qayta mustahkamlashga yordam beradi. «3x4» texnologiyasi talabalarni aniq bir muammoni (yoki biror mavzuni) yakka holda (yoki kichik jamoa bo'lib) fikrlab hal etish, yechimini topish, ko'p fikrlardan kerakli keragini tanlash, tanlab olingan fikrlarni umumlashtirish va ular asosida qo'yilgan muammo yuzasidan aniq bir tushuncha hosil qilishga, o'z fikrlarini ma'qullay olishga o'rgatadi, astronomiya darslarida guruhga bo'lishda asosan har bir guruhni boror sayyora nomi bilan atash orqali o'quvchilarda avvalo o'sha sayyoralar haqida zarur bilim va malakaga ega bo'lishga chorlaydi, bunday darslar bahs-munozaralari bo'lib o'tadi va o'quvchilarda erkin fikrlash imkonini beradi. «Muammo» texnologiyasi talabalarga predmetning mavzusidan kelib chiqqan turli muammoli masala yoki vaziyatlarning yechimini tug'ri topishlariga o'rgatish, ularda muammoning mohiyatini aniqlash bo'yicha malakalarni shakllantirish, muammoni yechishning ba'zi usullari bilan tanishtirish va muammoni yechishda mos uslublarni tug'ri tanlashga o'rgatish, muammoni kelib chiqish sabablarini va muammoni yechishdagi xatti-harakatlarni to'g'ri aniqlashga o'rgatishdan iborat. Guruh sharoitida ishlashda va kognitiv fikrlashga o'rgatishda turli **interaktiv metodlar**dan foydalanish yaxshi samara beradi.

O'zbekiston pedagogik texnologiyalarini tadbiiq etish va rivojlantirish uchun talay intellektual imkoniyat va axborot zahiralari ega. Xulosa qilib aytganda, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy ijodkorligini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan maqsadli foydalanishga o'rgatilsa oliy o'quv yurtlarida talabalarni o'quv faoliyatlari samaradorligini oshiradi. Bo'lajak mutaxassislarni kasbiy qiziqishlarini orttiradi.

## REFERENCES

1. Malikova, D. (2020). Deposit base of Uzbekistan commercial banks. *World Scientific News*, (143), 115-126.

# МЕДИЦИНА, ПЕДАГОГИКА И ТЕХНОЛОГИЯ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА

Researchbib Impact factor: 11.79/2023

SJIF 2024 = 5.444

Том 2, Выпуск 6, 30 Июнь

2. Malikova, D. (2020). Consulting services market of Uzbekistan. *World Scientific News*, (145), 168-179. 3. Malikova, D. (2023). METHODOLOGY FOR EFFECTIVE ASSESSMENT OF THE LEVEL OF ECONOMIC SECURITY OF BANKS. *Innovative Society: Problems, Analysis and Development Prospects*, 96-98.

4. Malikova, D., & Ziyadullayeva, M. (2023). INFLATION: THEORETICAL ASPECTS AND ANALYSIS OF PRICE CHANGES IN UZBEKISTAN. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(2), 204-207.

5. Malikova, D., & Abduganieva, F. (2023). The Role of Consulting in the Modern Economy. *Global Scientific Review*, 12, 1-4.

6. Malikova, D., & Rakhmonov, N. (2023). MONETARY AGGREGATES AND THEIR IMPORTANCE IN THE ECONOMY.

7. Malikova, D., & Ochilova, I. (2023). Analysis of the Current State of Deposit Operations of Commercial Banks of Uzbekistan. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, 2(2), 28-31.

8. Malikova, D., & Ochilova, I. (2023). THE IMPORTANCE OF DOMESTIC BANKS' PRECIOUS METALS ACCOUNTING OPERATIONS. *International journal of advanced research in education, technology and management*, 2(2).

9. Маликова, Д. (2021). UMUM TA'LIM MAKTABLARIDA KITOBXONLIK STRATEGIYASINI QO'LLASH: Malikova Dilrabo Mahmudovna, O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti tayanch doktoranti. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (7), 299- 305.

10. Ibraimova F.X. "BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY IJODKORLIKGINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI EXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK SHART – SHAROITLARI", RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA TILLARNI INTENSIV O'QITISHNING PSIXOLOGIKPEDAGOGIK JIHATLARI RESPUBLIKA ILMYIY-AMALIY ANJUMANI 2023-yil 2-iyun 138-142-betlar